Keywords: civil service, mentoring system, managerial personnel, mentoring mechanisms, managerial competencies, professional development, leadership, human capital, succession management, institutional development, professional training, motivation, corporate culture, effectiveness.

KIRISH

Davlat fuqarolik xizmatini isloh qilish, milliy kadrlarni tayyorlash, ularni bosqichma-bosqich davlat fuqarolik xizmatida kelgusida rahbarlik faoliyatiga tayyorlash hamda lavozimlarda meritokratik tamoyillar asosida kareraviy o'sishini tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur sohani yanada takomillashtirish maqsadida qonunchilik normalarini rivojlantirish, jamiyat ongi va turmush tarziga davlat xizmati hamda davlat



xizmatchisining ma'naviy qiyofasi, halollik tamoyillarini chuqur singdirgan rahbar kadrlar korpusini shakllantirish yuzasidan ko'plab ilg'or mexanizmlar va yetakchi g'oyalar izchil amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, yetuk, inson qadrini e'zozlaydigan, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatga ega va professional yangi avlod rahbar kadrlarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni tarmoq va sohalar ehtiyojlaridan kelib chiqib maqsadli ravishda qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, mazkur yo'nalishda samarali ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni olib borish tartib-taomillarini takomillashtirish bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'ylab **4-sanoat inqilobi** ta'sirida texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda barcha yo'nalishlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanilishi inson kapitalini rivojlantirish va uni strategik qadriyat darajasiga ko'tarish masalasining ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilishiga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy rahbar qiyofasi ilg'or texnologiyalardan samarali foydalana oladigan, proaktiv yechimlar, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga hamda ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratishga qodir shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, shiddat bilan rivojlanayotgan global siyosiy va iqtisodiy jarayonlar sharoitida umummilliy qadriyatlarni e'tiborga olgan holda jamiyat taraqqiyoti va genofondi rivojiga munosib hissa qo'shishni o'zining mas'uliyatli vazifasi deb biladigan, o'zgarishlarni samarali boshqarishga qodir yangi avlod rahbarlarini shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat fuqarolik xizmatida rahbar kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zamonaviy davlat boshqaruvi islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu jarayonda mentorlik tizimini joriy etish rahbarlik salohiyatini rivojlantirish va inson kapitalini mustahkamlashning samarali vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois mazkur mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Mentorlik nazariyasining ilmiy asoslari K. Kram, D. Clutterbuck, E. Megginson, B. Ragins, T. Allen va L. Eby kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. K. Kram mentorlikni tashkilotlarda kasbiy rivojlanish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmi sifatida izohlab, uning martaba rivoji va psixologik qo'llab-quvvatlashdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslab bergan. D. Clutterbuck mentorlikni tashkilot samaradorligini oshirish, bilim va tajribani uzatish hamda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida baholaydi.

B. Ragins va T. Allen mentorlikning rasmiy hamda norasmiy shakllarini tahlil qilib, uning xodimlarning kasbiy o'sishi, motivatsiyasi va tashkilotga sodiqligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslagan. L. Eby esa mentorlik dasturlarining samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqib, mentor va mentee o'rtasidagi o'zaro ishonch hamda muntazam hamkorlik muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Davlat boshqaruvi tizimida mentorlikni qo'llash masalalari **OECD, BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), Jahon banki**, shuningdek, Yevropa davlatlari davlat xizmati institutlari tomonidan tayyorlangan tahliliy hisobotlarda ham yoritilgan. Mazkur manbalarda mentorlik davlat xizmatchilarining kasbiy moslashuvi, strategik fikrlashi, boshqaruv kompetensiyalari va xizmat samaradorligini oshirishning muhim institutsional mexanizmi sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini isloh qilish, rahbar kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda kadrlar siyosati, kompetensiyaviy yondashuv hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda davlat fuqarolik xizmatida rahbar kadrlarni tayyorlashda mentorlik tizimini kompleks boshqarish, uning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish, milliy mentorlik modelini shakllantirish hamda mentorlarni tayyorlash, sertifikatlash va monitoring qilish mexanizmlarini ilmiy asoslash istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bois mazkur tadqiqot davlat fuqarolik xizmatida rahbar kadrlarni tayyorlashda mentorlik tizimini joriy etishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, uning samaradorligini baholash indikatorlarini ishlab chiqish hamda xalqaro tajribani milliy amaliyotga moslashtirish orqali mazkur ilmiy yo'nalishni yanada rivojlantirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur masala yuzasidan milliy kadrlar sinfini shakllantirishda samarali va, eng muhimi, shaffof mexanizm sifatida mentorlik tizimini targ'ib qilmoqdamiz. Statistik ma'lumotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, **2016-yilda** davlat xizmatchilari orasida ayollar ulushi 8 foizni tashkil qilgan bo'lsa, **2025-yilga** kelib ushbu ko'rsatkich 35



foizni, ya'ni har uchinchi davlat xizmatchisi ayollar ulushiga to'g'ri kelmoqda. Bu holat davlat fuqarolik xizmatida ayollar orasidan rahbar kadrlar qatlamini tizimli ravishda shakllantirishning dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Shunday ekan, rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonida gender sezgirlik xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot davomida mentorlik tizimini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalari, raqamli monitoring va analitik baholash vositalariga asoslangan innovatsion raqamli boshqaruv modeli ishlab chiqildi. Mazkur model xodimlarning individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish hamda ularni monitoring qilish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijasida davlat fuqarolik xizmatida rahbar kadrlarni tayyorlash tizimini institutsional rivojlantirish sharoitida mentorlik tizimini samarali boshqarish orqali inson kapitalini rivojlantirishning innovatsion modeli ishlab chiqildi. Ushbu model rahbar kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish, bilim va tajriba transferini tizimli tashkil etish hamda uzluksiz professional rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bu borada so'nggi yillarda ko'plab samarali mexanizmlar orqali tizim yaratish va ushbu muhim sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishni yanada takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli vazifalar mavjud. Xususan, ayollarning jamiyatda, oilada va mehnat jamoasida o'z salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun mavjud ijtimoiy stereotiplarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga xizmat qiladigan mexanizmlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada aniq mexanizmlarga asoslangan yaxlit tizimni yaratish, uni respublikaning turli hududlari turmush tarzidan kelib chiqib takomillashtirish hamda chekka hududlarga samarali tatbiq etish uchun vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. O'zgaruvchan va dinamik mehnat bozori talablarini inobatga oladigan bo'lsak, rahbar kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Misol uchun, jamoada xodimlar malakasini muntazam oshirib borish, inson resurslarini rivojlantirish, ish samaradorligi ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish hamda yuqori natija ko'rsatgan xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish ularning o'z ustida muntazam ishlashiga motivatsiya beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Rahbar kadrlar korpusini davlat taraqqiyotining muhim tayanchlaridan biri sifatida baholash hamda ushbu qatlamni sifatli va tizimli shakllantirish xirasini yaratish kelgusidagi barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Shu o'rinda muhtaram Prezidentimizning: **“Ayollar, oilaga g'amxo'rlik qilib, farzandlarini tarbiyalab, ta'lim olib, ishlab, tadbirkorlik bilan shug'ullanganlar, sizni haqiqiy qahramonlarimiz deb hisoblayman”**, degan e'tiroflari jamiyat va davlat rivojida ayollarning o'rni beqiyos ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mentorlik amaliyotida mentor va menti o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishish orqali bir-biriga psixologik ta'sir ko'rsatishi tabiiy jarayondir. Shu bois mentorlik faoliyatiga jalb etiladigan rahbarlarning, avvalo, jamiyatda namunali fuqaro, professional mutaxassis va yuksak ijobiy fazilatlariga ega yetuk shaxs bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Psixologik va fiziologik individuallik nuqtayi nazaridan aytish mumkinki, ayol va erkak mentalar o'rtasidagi ayrim farqlar tabiiy holat hisoblanadi. Mehnat jamoasida ishni tashkil etishda ular o'rtasida xulq-atvor, ehtiyojlar, ijtimoiy rollar va imkoniyatlar jihatidan o'ziga xos farqlar kuzatilishi mumkin. Jumladan, ayollarda emotsional qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj nisbatan yuqoriroq bo'lib, ular ko'pincha o'z mentoridan professional tavsiyalardan tashqari ruhiy qo'llab-quvvatlashni ham kutadilar.

Erkaklar esa pragmatik tamoyillar ta'sirida aksariyat hollarda maqsadga yo'naltirilgan, natijaga tezroq olib boradigan usullar, amaliy tavsiyalar va tezkor yechimlarga ko'proq ehtiyoj sezadilar. Bundan tashqari, rahbar ayollar xirasini shakllantirish, ularni davlat xizmatiga samarali tayyorlash, zarur sharoit va imkoniyatlarni yaratish hamda butun mehnat faoliyati davomida uzluksiz ta'lim olishi va malakasini oshirib borishini ta'minlash orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Tadqiqotlarda ayollarning g'amxo'rlik, hamkorlik va jamoani qo'llab-quvvatlash kabi fazilatlari mehnat jamoasini rivojlantirish va ijobiy natijalarga erishishda muhim omillardan biri sifatida qayd etilgan. Shunday ekan, oldimizda turgan vazifalarni amalga oshirishda har ikkala jins vakillaridan iborat davlat xizmatchilari uchun mos va samarali mexanizmlarni yaratish, ularni amaliyotga tatbiq etish hamda ommalashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xorijiy tajribalar tahlili asosida davlat fuqarolik xizmatida rahbar kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish va kadrlar qo'nimsizligini kamaytirish maqsadida **“Leadership Pipeline”** hamda **“reversiv mentorlik (Reverse Mentoring)”** yondashuvlarini joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqildi. Mazkur mexanizm tajribali rahbarlar tomonidan boshqaruv tajribasi va institutsional bilimlarni yosh mutaxassislarga tizimli ravishda uzatish, shu bilan birga yosh xodimlarning raqamli va innovatsion kompetensiyalarini yuqori bo'g'in rahbarlariga transfer qilish orqali ikki tomonlama bilim almashinuvini ta'minlaydi. Natijada rahbar kadrlarni tayyorlash sifati oshadi, xodimlarning kasbiy moslashuvi tezlashadi hamda tashkilotlarda kadrlar qo'nimsizligini kamaytirishga xizmat qiladi.



Shu o'rinda mentorlik amaliyotini yo'lga qo'yishda ilg'or xorijiy tajribalar asosida sinovdan o'tgan usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mentorlik dasturlari bo'yicha **13 000** nafar ishtirokchi qatnashgan so'rovnoma ma'lumotlari tahlil qilinganda mentorlarga o'zlariga mos keladigan to'rtta yo'nalishdan birini tanlash taklif etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mentilar karera o'sishi va salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarga ko'proq qiziqish bildirgan. Ushbu holat Yangi Zelandiyada o'tkazilgan tadqiqotda ham kuzatilgan bo'lib, xulosa sifatida ayol davlat xizmatchilari mentor-menti munosabatlariga erkak hamkasblariga nisbatan ko'proq ehtiyoj sezishi aniqlangan. Tadqiqotchilar fikricha, ayollarning karera zinapoyalarida ko'tarilish jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan gender omillari ushbu ehtiyojning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Har qanday holatda ham bunday jarayonlar turli mamlakatlarning davlat sektoridagi ko'plab tashkilotlarda uchraydigan amaliyotlardan biri sifatida qayd etilgan. Mentorlikning yuqori samarali strategik dasturlari orqali yashirin salohiyatni ro'yobga chiqarishga bag'ishlangan qo'llanmalarda bu kabi tadqiqot natijalari keng yoritilgan. Jumladan, **Forbes** jurnali tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma va tahlillar natijalariga ko'ra, respondentlarning **76 foizi** mentorlik dasturlarini kasbiy faoliyat uchun muhim deb hisoblaydi, biroq ularning **37 foizi** ushbu fikrni qat'iy qo'llab-quvvatlagan. Shuningdek, mentorga ega bo'lgan mutaxassislar mentorsiz hamkasblariga nisbatan o'z faoliyatidan ko'proq mamnun ekanligini bildirgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mentorlik munosabatlarining **14 foizi** kimdandir yo'l-yo'riq va ko'mak so'rab murojaat qilish natijasida boshlangan.

Mentorlik munosabatlarining **61 foizi** esa tabiiy ravishda shakllangan. Bundan tashqari, aksariyat ishtirokchilar **same-sex** juftligini, ya'ni o'z jinsidagi mentor bilan ishlashni ma'qul ko'rgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich ayollarda **69 %**, erkaklarda esa **82 %**ni tashkil etgan. Mentor-menti munosabatlari ishtirokchilarining **87 foizi** o'zaro mentorlik jarayonidan ruhiy va kasbiy qo'llab-quvvatlash olganini hamda buning natijasida o'ziga bo'lgan ishonchi ortganini ta'kidlagan. Shuningdek, respondentlarning **82 %i** mentorlik dasturlari mentor-menti juftligi faoliyat yuritayotgan tashkilotlar o'rtasida samarali hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilganini qayd etgan. Qolaversa, respondentlarning **84 %i** mentorlik munosabatlari ikki tomon uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilishini, mentor sifatida faoliyat yuritgan rahbarlar esa mentorlik faoliyatida ishtirok etmagan hamkasblariga nisbatan o'z ishinining mazmuni va qoniqish darajasi yuqoriroq, ish bilan bog'liq stress darajasi esa pastroq bo'lganini bildirgan.

Shu xususda Senat raisi T. Narbavevaning: **“Yetakchilik — bu insonlarni birlashtirish, o'zgartirish va ilhomlantirishdan iborat. Rahbar, avvalo, insonlarning ishonchini boshqara olishi kerak”**, degan fikrlari ham tashkilotlarda yuqori natijadorlikka erishishda rahbar va xodimlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar muhim o'rin tutishini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillarning mantiqiy davomi sifatida aytish mumkinki, hozirgi **Z-avlodning** ijtimoiy-psixologik holati bo'yicha xalqaro miqyosda turli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Garvard va Beylor universitetlari olimlari **22 ta** mamlakatdan **200 mingdan ortiq** respondent ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, an'anaviy **“baxt egri chizig'i”** modelida muayyan o'zgarishlar kuzatilganini aniqlagan.

Mazkur tadqiqot natijalari joriy yilning aprel oyida e'lon qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar, shuningdek, sun'iy intellekt vositalaridan keng foydalanish jamiytdagi qadriyatlar tizimining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, dinamik axborot muhiti yosh avlod vakillarining dunyoqarashi, fikrlash uslubi hamda psixoemotsional holatida muayyan o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi omillar alohida qayd etilgan.

Ma'no va yo'nalish masalasi. Yoshlarning yarmidan ko'pi (**58 %**) o'tgan oy davomida hayotida **“ma'no yoki maqsad”** yetishmasligini, respondentlarning yarmi esa **“hayotida nima bilan shug'ullanishni aniq bilmaslik”** holati ularning ruhiy salomatligiga ta'sir ko'rsatganini bildirgan.

Moliyaviy farovonlik. Yoshlarning **56 %i** o'zining moliyaviy farovonligi bilan bog'liq masalalar yuzasidan xavotir bildirgan.

Muvaffaqiyatga erishish bosimi. Respondentlarning yarmi muvaffaqiyatga erishish bilan bog'liq bosim ruhiy salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan.

Atrof-muhit va global jarayonlarni qabul qilish. Yoshlarning **45 %i** dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni murakkab jarayon sifatida qabul qilishi ularning ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatganini qayd etgan.

Yolg'izlik va ijtimoiy moslashuv. Respondentlarning deyarli yarmi (**44 %**) atrofdagilar bilan moslashishda qiyinchilik hissini bildirgan bo'lsa, **34 %i** yolg'izlik hissini boshdan kechirayotganini qayd etgan.

Ijtimoiy va siyosiy omillar. Iqlim o'zgarishi, maktablardagi zo'ravonlik holatlari hamda siyosiy yetakchilik bilan bog'liq global jarayonlar **Z-avlod** vakillarining dunyoqarashi va ruhiy holatiga ta'sir etuvchi omillar qatorida e'tirof etilgan.

Shuningdek, AQShdagi **Yoshlar xulq-atvori xavfi tadqiqoti markazi** tomonidan o'tkazilgan kuzatuvlarda amerikalik yoshlar, ayniqsa, yosh ayollar orasida xavotir va depressiya holatlarining ortish tendensiyasi qayd etilgan. Jumladan, **2023-yilda** yuqori sinf o'quvchi qizlarining **53 %i**, o'g'il bolalarning esa **28 %i** doimiy qayg'u yoki umidsizlik hissini boshdan kechirayotganini bildirgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahliliy materiallar asosida xulosa qilish mumkinki, axborot oqimlari jadallashgan, inson fokusi muhim resurs sifatida e'tirof etilayotgan hamda giperdinamik siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jarayonlar jadal rivojlanayotgan davrda yashamoqdamiz. Zamonaviy global jarayonlar, jumladan, geosiyosiy o'zgarishlar, iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar, tezkor axborot almashinuvi hamda turli axborot manbalarining kengayishi jamiyatlarning ijtimoiy qarashlari va rivojlanish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois aholisining yarmidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadigan Respublikamizning barqaror rivojlanishi va taraqqiyotini ta'minlash maqsadida maxsus milliy dasturlarni qabul qilish hamda ularning samarali ijro mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, insonning diqqati, e'tibori va energiyasi muhim kapital hisoblanadigan zamonaviy sharoitda tezkor hamda psixoemotsional xususiyatlarni o'zida mujassam etgan samarali mexanizmlarni yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada milliy qadriyatlarimizni, **Yangi O'zbekiston rivojlanish strategiyasi** tamoyillarini aks ettirgan, inson qadrini ulug'lovchi, gender sezgirlik tamoyillariga asoslangan, shaffof, hisobdor va izchil faoliyat yuritadigan tizimni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Tadqiqot natijasida davlat fuqarolik xizmati uchun rahbar kadrlarni tayyorlash tizimida meritokratiya, shaffoflik va institutsional vorislik tamoyillariga asoslangan konseptual mentorlik dasturi modeli ishlab chiqildi. Ushbu model **EMCC**, **IMA** va **ICF** standartlarini milliy amaliyot bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Bu borada ko'plab taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, ayniqsa, davlat xizmatida islohotlar yetakchisi bo'ladigan rahbar kadrlar korpusini shakllantirish hamda ushbu yo'nalishda milliy dasturlarni qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Xususan, pirovard natijada Vatan ravnaqi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga tayyor, zamonaviy bilim va salohiyatga ega, ma'nan yetuk, tashabbuskor hamda fidoyi yosh rahbar kadrlarni shakllantirish, shu orqali jonajon Vatanimizning ko'p asrlik noyob qadriyatlarini asrab-avaylash va ularni kelgusi avlodga munosib tarzda yetkazishga munosib hissa qo'shish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-788-son, 2022-yil 8-avgust. URL: <https://lex.uz/docs/6145972>
2. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholash mexanizmlari: monografiya / mualliflar jamoasi. – Toshkent: DBA, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. PF-95-son. URL: <https://www.lex.uz/docs/7587464>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi «Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni. PF-78-son. URL: <https://www.lex.uz/docs/7520315>
5. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/09/book/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Rahbar kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. – Toshkent. URL: <https://lex.uz/ru/docs/4526545>
7. Bahrami P., Nosratabadi S., Palouzian K., Hegedüs S. Modeling the Impact of Mentoring on Women's Work-Life Balance: A Grounded Theory Approach // *Administrative Sciences*. URL: <https://www.mdpi.com/2076-3387/13/1/6>
8. Johnsons C. Rahbar ayollar xalqaro forumidagi nutq / Latviyaning O'zbekistondagi elchixonasi vakili. 2025-yil 5-noyabr.
9. Ehrich L. C., Hansford B. C. Mentoring in the Public Sector // *Practical Experiences in Professional Education*. 2008. Vol. 11, No. 1. URL: <https://eprints.qut.edu.au/224196/>
10. Bhatta G., Washington S. 'Hands Up': Mentoring in the New Zealand Public Service // *Public Administration*. 2003.
11. Clutterbuck D. The Talent Wave: Why Succession Planning Fails and What to Do About It. – London: Kogan Page, 2012.
12. 2024 Mentoring Impact Report: 98% of Fortune 500 Companies Have Mentoring. 2024. URL: <https://hbr.org/2024/12/why-mentoring-programs-fail-and-how-to-make-them-worthwhile>
13. Gill M., Roulet T. Stressed at Work? Mentoring a Colleague Could Help.
14. «Davlat boshqaruvida ayollarning roli: O'zbekiston kelajagini shakllantirayotgan islohotlar ovozi»: Rahbar ayollar xalqaro konferensiyasi materiallari. 2025-yil 7-noyabr.
15. SKOLKOVO. Rasmiy sayt. URL: <https://www.skolkovo.ru/>
16. Forum Demo. Rasmiy sayt. URL: <https://forumdemo.ru/>
17. Unistica. Rasmiy sayt. URL: <https://uz.unistica.com/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>